

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

***Qo‘lyozma huquqida***

**UDK:334.75:338.054.23**

**JO‘RAQULOVA MUHLISA JAHONGIR QIZI**

**KICHIK BIZNES KORXONALARIDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI  
TA’MINLASH MASALALARI**

**70411302 – Biznesni boshqarish (Master of Business administration –  
MBA) mutaxassisligi**

**Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan  
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar: i.f.n ., prof.v.b D. Shadibekova**

**TOSHKENT – 2025**


Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Biznes boshqaruvi"  
kafedrasida bajarilgan.

Ilmiy rahbar



i.f.n ., prof.v.b D. Shadibekova

Kafedra mudiri




i.f.d., prof. U.V.Gafurov

Kechki ta'lim va magistratura  
fakulteti dekani



i.f.d., prof. J.I.Karimqulov

Men, Jo'raqulova Muhlis Jahongir qizi ushbu magistrlik dissertatsiya ishini nustaqil bajardim. Ko'chirmachilik holati yo'qligiga javob beraman. Ko'chirmachilikka yo'l qo'yilgan holatida magistrlik dissertatsiya ishi Yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi raisi taqdimnomasiga asosan bekor qilinishi va "Qoniqarsiz" baho qo'yilishidan xabardorman.



МАГИСТРЛИК ДИССЕРТАЦИЯСИ ДАСТЛАБКИ ҲИМОЯСИ  
\_\_\_\_\_ - СОНЛИ БАЁННОМАСИ

2025 йил "\_\_\_\_\_" апрель

Ҳечки тавсими ва мақолида  
"70411302 Бизнесси соҳасида (НБВ)  
"мутахассислиги НБВ-01 -гуруҳи талабаси Ҳўрагулов  
Муҳаммад Жаҳонмурат  
"Кичик бизнес корхоналарида иқтисодий  
хавфсизликни таъминлаш масалалари"

мавзусидаги магистрлик диссертациясининг дастлабки ҳимояси натижаларига кўра  
қуйидаги камчиликлар кайд этилди:

- 1) кириш қисмида қўлланма керак.
- 2) муаллифнинг ўзгачаги билан боражаси  
тарҳида оғиб берилмаган.
- 3) илмо хатлар мавжуд.
- 4) иш тибослар тўлиқ расмий-  
лаш тиричлиги.

Магистрлик диссертацияси юзасидан хулоса (КИМКда ҳимояга тавсия этилади/тавсия  
этилмайди)

Комиссия раиси: Гафуров Ҳ - кафедра мудири

Комиссия аъзолари: Ходжаев Р -

Восилова Д -

Ҳўдашев А -

Имомов И -

Ибраҳимов - котиб

Ҳўрагулов  
Ҳўрагулов  
Ҳўрагулов  
Ҳўрагулов  
Ҳўрагулов

## ANNOTATSIYA

Ushbu magistrlik dissertatsiyasida kichik biznes korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalalari nazariy va amaliy jihatdan kompleks tahlil qilingan. Kichik biznes subyektlari mamlakatimiz iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi sifatida barqaror iqtisodiy rivojlanish, bandlikni ta'minlash va hududiy ijtimoiy-iqtisodiy muvozanatni saqlashda muhim rol o'ynaydi. Birinchi bobda kichik biznes korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning ilmiy-nazariy asoslari o'rganilib, iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining mohiyati, unga yondashuvlar turlari, hamda moliyaviy va operatsion xavfsizlik kabi asosiy tarkibiy qismlar chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekiston olimlari tomonidan ishlab chiqilgan nazariy yondashuvlar ham ko'rib chiqilgan. Ikkinchi bobda O'zbekistonda kichik biznes subyektlarining iqtisodiy xavfsizligi holati statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinib, mavjud muammolar, xatarlar va ularning kelib chiqish sabablari aniqlangan. "Yuksak O'zbekim Quruvchisi" MChJ misolida korxonaning moliyaviy ko'rsatkichlari asosida iqtisodiy xavfsizlik darajasi tahlil qilingan. Uchinchi bobda kichik biznes korxonalarida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash usullarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Jumladan, innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalarni joriy etish, risklarni boshqarish tizimlarini kuchaytirish, hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlov mexanizmlarini samarali tashkil etish zaruriyati asoslab berilgan. Dissertatsiya yakunida hududiy va korxona darajasida iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan amaliy takliflar ilgari surilgan.

## **ABSTRACT**

This master's dissertation provides a comprehensive theoretical and practical analysis of the issues related to ensuring economic security in small business enterprises. Small businesses play a vital role in the sustainable development of the national economy, creating employment, and maintaining socio-economic balance across regions. The first chapter explores the theoretical foundations of economic security in small enterprises, analyzing key concepts, classifications of security approaches, and core components such as financial and operational security. It also reviews theoretical models developed by Uzbek scholars. The second chapter analyzes the current state of economic security in small business entities in Uzbekistan, identifying main risks and problems based on statistical data. A case study of the LLC “Yuksak O‘zbekim Quruvchisi” is presented to assess the enterprise’s financial indicators and level of economic security. The third chapter focuses on the development of proposals to improve mechanisms for ensuring economic security in small businesses. It emphasizes the need for innovative approaches, implementation of digital technologies, improvement of risk management systems, and more efficient government support mechanisms. The dissertation concludes with practical recommendations aimed at strengthening economic security at both regional and enterprise levels.

## MUNDARIJA

|                                                                                                                                                                      |           |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------|
| <b>KIRISH.....</b>                                                                                                                                                   | <b>6</b>  |
| <b>I BOB. KICHIK BIZNES KORXONALARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI.....</b>                                                             | <b>11</b> |
| 1.1. Kichik biznes korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash nazariy asoslari.....                                                                          | 11        |
| 1.2. Kichik biznes korxonalarida iqtisodiy xavfsizlikga ta'sir etuvchi omillar.....                                                                                  | 15        |
| 1.3. Kichik biznes uchun iqtisodiy xavfsizlik mezonlari va tahlil usullari.....                                                                                      | 21        |
| I-Bob bo'yicha xulosa.....                                                                                                                                           | 23        |
| <b>II BOB. “YUKSAK O'ZBEGIM QURUVCHISI” MA'SULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATIDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNING HOZIRGI HOLATI.....</b>                                           | <b>25</b> |
| 2.1. “YUKSAK O'ZBEGIM QURUVCHISI” ma'suliyati cheklangan jamiyat tavsifnomasi .....                                                                                  | 25        |
| 2.2. “YUKSAK O'ZBEGIM QURUVCHISI” MChJ iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlari taxlili.....                                                                           | 28        |
| 2.3. “YUKSAK O'ZBEGIM QURUVCHISI” MChJ iqtisodiy xavfsizlik va samaradorlik ko'rsatkichlari tahlili.....                                                             | 41        |
| II-Bob bo'yicha xulosa.....                                                                                                                                          | 45        |
| <b>III BOB KICHIK BIZNES KORXONALARIDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI .....</b>                                              | <b>48</b> |
| 3.1. “Yuksak O'zbekim Quruvchisi” MChJ mijozlar bilan ishlash tizimining takomillashtirish orqali iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash va samaradorligini oshirish..... | 48        |
| 3.2. “Yuksak O'zbekim Quruvchisi” MChJni innovatsion rivojlantirish iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash .....                                                          | 66        |
| III-Bob bo'yicha xulosa.....                                                                                                                                         | 76        |
| <b>XULOSA.....</b>                                                                                                                                                   | <b>78</b> |
| <b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>                                                                                                                       | <b>88</b> |

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.** O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishi jarayonida yuzaga kelayotgan yangi strategik tavakkalchiliklar iqtisodiy xavfsizlikning nazariy asoslariga bo'lgan qiziqishni sezilarli darajada kuchaytirmoqda. Davlat iqtisodiy xavfsizligining darajasi, avvalo, mavjud ishlab chiqarish kuchlarining holati, ularning samarali ishlatilish darajasi hamda tashqi iqtisodiy aloqalarning tarkibiy tuzilmasi bilan bevosita bog'liqdir. Shu jihatdan olib qaralganda, davlatning iqtisodiy xavfsizligi kengaytirilgan takror ishlab chiqarish imkoniyatlarini ta'minlaydigan, fuqarolarga zamonaviy hayot tarzini yaratib beradigan ishlab chiqarish salohiyati bilan belgilanadi.

Globalashuv jarayonining jadallashuvi va xalqaro raqobatning kuchayib borayotgan bir paytda, xo'jalik yurituvchi subyektlar, xususan, kichik biznes korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy sharoitda sanoatlashtirish jarayoni tez sur'atlarda rivojlanmoqda. Industrial rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotda savdo ulushi 60–70%ni tashkil etmoqda, va ularda YIMning 50%dan ortig'i "bilimlar iqtisodiyoti" hisobiga yaratilmoqda. O'zbekistonda esa savdo tarmog'ining YIMdagi ulushi 35,5%ni tashkil etib, uning 83%i yirik savdo korxonalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Kichik biznes subyektlari uchun iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi omillar, xususan, iqtisodiy tebranishlar, inqirozlar va favqulodda holatlar bu subyektlarning barqaror faoliyat yuritishiga jiddiy xavf tug'dirmoqda. Amerika Bankrotlik Instituti ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha kichik chakana savdo korxonalarining 60% yiliga faoliyatini to'xtatmoqda, bu ko'rsatkichlarning 25% moliyaviy boshqaruvdagi kamchiliklar, 11% muvaffaqiyatsizlik, 15% esa kutilmagan raqobat tufayli yuz bermoqda.

O'zbekistonda kichik biznes subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash yo'nalishida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatda biznes muhitini takomillashtirish, xususiyl sektor ulushini yalpi ichki mahsulotda 80%ga,